

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Tursunov, A.Ibragimov, U.Ishimov Farg'ona vodiysida o'sadigan <i>cistanche mongolica</i> o'simligining poya qismi flavonoidlar tarkibi va miqdorini yuqori samarali suyuq xromatografik usulda aniqlash.....	198
Sh.Turg'unboev, H.Toshov, A.Xaitbayev Gossipolning benzidin bilan yangi shiff asoslari sintezi	203
X.Trobov, R.Djurayeva, X.Karimov, Z.Islomova Kuchli kislotalar eritmalarida polivinilspirt gelining bo'kishi.....	207
M.Axmadaliyev, I.Sharofiddinov Metanning pirolizlashdagi chiqindilarini qaytaishlash omillari.....	212
M.Axmadaliyeva, M.Axmadaliyev 11-rafinatni parafinsizlantirishda erituvchi tarkibining ta'siri.....	217
U.Yusupaliyev, T.Amirov Bitum emulsiyasi qo'shilgan sement bilan ishlov berilgan shag'al-qum qorishmalari bilan asoslarni qurish uslublari	222
N.Dexqanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova, NaX seolitida vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi	229
I.Asqarov, X.Isaqov, S.Muhammedov Furfurolidenkarbamidning mass-spektroskopik va termik tahlili	237
F.Xurramova, S.Zokirov, Sh.Yarmanov, S.Botirov, A.Inxonova Tabiiy polimerlarga sun'iy eritmalaridagi Pb () ionlarining sorbsiya kinetikasi	240

BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

I.Zokirov, D.Asqarova, G.Zokirova <i>Leptinotarsa decemlineata</i> say, 1824 invaziv turining Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalish xususiyatlari	245
N.Abdullayeva, M.Davidov Assortimentni kengaytirish va yumshoq pishloq ishlab chiqarishni ko'paytirish istiqbollari	250
A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Haydarov Sug'oriladigan tuproqlarni ekologik jihatdan baholash	254
R.Jamolov, O.To'rayev, N.Xoshimova Farg'ona viloyatida ona asalarini sun'iy usulda urug'lantirishning uning tuxumdorligiga ta'siri.....	258
G'.Yuldashev, D.Darmonov, I.Mamajonov Minerallashgan suvlar bilan sug'orishdagi tuproqning tuz balansining o'zgarishi	262

ILMIY AXBOROT

A.Bababekov Marosim iqtisodiyoti: nikoh to'yi marosimlari misolida (iqtisodiy antropologik tahlil)	268
S.Ruziyeva O'zbekistonda san'at menejmenti: asosiy yo'nalishlari va rivojlanish strategiyalari.....	274
O.Abobakirova Abdulla Avloniy hikoyatlarining badiiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati	278
D.Nasriyeva Isajon Sulton asarlarida presedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida.....	283
I.Raufov O'zbekistonda neft-gaz tizimi istiqbollari	287
N.Jumaniyazova O.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarining badiiy tahlili.....	290
E.Nasrullayev Navoiyshunos S.Olimov tadqiqotlarida ulug' shoir ma'rifiy talqinlarining tadqiqi.....	293

O'.HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ASARINING BADIY TAHLILI

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ О. ХАШИМОВА "МЕЖДУ ДВУХ ДВЕРЕЙ"

ARTISTIC ANALYSIS OF HASHIMOV'S WORK "BETWEEN TWO DOORS"

Jumaniyazova Nargiza Abdug'ofurovna ¹¹Jumaniyazova Nargiza Abdug'ofurovna

– Farg'ona davlat universiteti "Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası" o'qituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asari tahlil qilinar ekan, uning ijtimoiy, umuminsoniy, zamonaviy qimmatini haqida so'z yuritiladi. Asardan olingan parchalar orqali unda ishtirok etuvchi personajlar ruhiyati va xarakteri, asarning mohiyati, janri, badiiyati ochib beriladi. O'ziga xos polifonik tarzda yozilgan bu romanning qimmatini hozirgi davrgacha yo'qolmaganligi, aksincha unda aks etgan odamiylik, insonparvarlik, vatanparvarlik, samimiylik kabi xislatlarning hayotiy va haqqoniy ifodalanishi, asardagi har bir personaj hayoti va ruhiyatida aks etgan voqealar timsolida ko'rsatib beriladi.

Аннотация

В статье анализируется произведение Хашимова "Между двух дверей" и говорится о его социальной общечеловеческой, современной ценности. Через отрывки из произведения раскрывается менталитет и характер участвующих в нем персонажей суть, жанр, художественность произведения. Ценность этого романа написанного в уникальной полифонической манере, не утрачена и до настоящего времени, напротив, в нем проявляется жизнь и правдивое выражения таких качеств, как человечность, гуманизм, патриотизм, искренность, события отражение в жизни и психике каждого персонажа произведения.

Abstract

The article analyzes Hashimov's work "Between Two Doors" and render on its social, universal, modern value. Through excerpts from the work, the mentality and character of the participating in it, the essence, genre and artistry of the work are revealed. The value of this novel, written in a unique polyphonic manner, has not been lost to the present time, on the contrary, it is shown by the life and truthful expression of such qualities as humanity, humanitarianism, patriotism, sincerity and the events reflected in the life and psyche of each character in the novel.

Kalit so'zlar: polifoniya, personaj, polifonik asar, tahlil, ijtimoiy, badiiy, mushohada, dialog.

Ключевые слова: полифония, персонаж, полифоническое произведение, анализ, социальное, художественный, наблюдение, диалог.

Key words: polyphony, character, polyphonic work, analysis, socially, artistic, observation, dialog.

KIRISH

O'.Hoshimov o'zbek adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan zabardast yozuvchi sanaladi. Uning barcha asarlarida, jumladan, "Ikki eshik orasi" romanida insonparvarlik, Vatanga muhabbat, mehr-oqibat, samimiylik kabi g'oya va tushunchalar, shu bilan bir qatorda, shu hislarni yuragiga jo qilgan insonlarning ruhiy kechinmalari, mashaqqatli hayoti ifodalanadi. "Binobarin, bu boshdan-oyoq urushning achchiq saboqlari orqali odamlarni hushyorlikka chaqiruvchi, umuman, urushga qarshi qaratilgan asardir. Romanning muhim ijtimoiy, umuminsoniy, zamonaviy qimmatini ham ana shunda" namoyon bo'ladi. [1] Shu ma'noda "Ikki eshik orasi" romanini insonlar taqdiri, xalqimizning XX asrdagi eng fojeali taqdirleri haqidagi badiiy asar deyish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yozuvchi romandagi voqealarni 7 ta qahramon tilidan hikoya qilishi voqea-hodisalarni kitobxon yuragiga etib borish ta'sirchanligini oshiradi. Bu voqea-hodisalar hammasi asar markazida turuvchi Muzaffar atrofida aylanadi. Masalan, "Qora amma" Robiyaga o'z ukasi Shomurod uchun sovchi bo'lgandagi holat: "...oyim havo etishmayotgandek xirillab nafas oladi...Ayvon burchagida Muzaffar yotibdi. Ora-chora ingraydi. Singan qo'li og'riyotgan bo'lsa kerak..."

Jilla qursa, shu bolaga rahming kelsa-chi, qizim. – Oyim bo'g'inlari shiqirlab o'rnidan turdi.

Muzaffarning tepasiga borib, kaftini peshonasiga bosdi..." (94-bet)

"Qora amma" Robiyaning "qari qiz" bo'lib o'tib ketishidan emas yoki ukasi Shomurodga achinganidan emas, balki aynan begunoh Muzaffarga rahmi kelganidan o'z "men"iga qarshi chiqadi, o'g'liga fотиha qilingan qizni Shomurod uchun ravo ko'radi. Bu bilan u Shomurodni xotinli qilishni emas, Muzaffarni onali qilishni o'ylaydi.

Yoki... Robiya Munavvarga sovchi bo'lib borganida:

- "...oyim dahshatli narsani aytayotgandek uv solib yubordi, – bilmasdan kirib qolibman. Avvalgi uy boshqa edi. Bannisaning orqasida. Esingizdami, pochcha o'lganida ma'arakaga boruvdik, hozir boshqa joyga...

- A?! – Dadam bir lahza og'zini lang ochib, mo'ylovi titray boshladi. – Nima? – dedi quloqni teshib yuborgudek hayqirib. Gandiraklab o'rnidan turdi. He yo'q, be yo'q ustimga bostirib kela boshladi. Nafasi xirillab, og'zidan ko'pik chiqib ketdi..." (480-bet)

Robiya sovchilikka borgan xonadon egasining qizi Munavvar Muzaffarga emikdosh singil edi.

Aslida bitta voqea-hodisani bir necha kishi tilidan bayon qilish usuli polifoniya deyiladi.

"**Polyphonic** [poli-fon-ik], literally 'many-voiced', a term found in the writings of the Russian literary theorist Mikhail Bakhtin, where it is equivalent to *DIALOGIC. Thus a polyphonic novel is one in which several different voices or points of view interact on more or less equal terms." [2]

Ya'ni Polifoniya [poli-fon-ik] "ko'p ovozli" degan ma'noni bildirib, bu atama rus adabiyoti nazariyotchisi Mixail Baxtinning yozuvlarida dialog deb nomlangan. Shunday qilib, polifonik roman bir nechta personajlar tomonidan hikoya qilinib, asar mohiyatiga ozmi-ko'pmi ta'sir etadi.

Lekin bunda har bir personaj voqeaga yoki vaziyatga o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqib yondashadi. Natijada romanda turli qarashlar kurashi ham yuzaga keladi.

Masalan,

1." ...Har qadamda mingta qiz ko'z tikib turganiga qaramay meni, yolg'iz meni yaxshi ko'rgan Umar aka, hammani zir qaqshatadigan Umar zakunchi o'sha kuni shunchalik yalingani, oyog'imga yiqilgudek iltijo qilgani uchun sevinishga o'xshash his paydo bo'ldi. Ajab, bu odamni birinchi ko'rganimdayoq yuragim jiz etgani bejiz emaskanda, bundan chiqdi, uyam meni yaxshi ko'rarkanda!"

2. "Tog'am, donishmand tog'am bir gapni ko'p qaytarardi. "Bu dunyoning jannati ham xotin, do'zaxi ham. Xotin kishiga jilovingni berib qo'ydingmi, tamom! Jannatda yuribman deb, do'zaxga tushib qolganingni o'zing bilmaysan." To'g'ri aytgan ekan. Mana, do'zaxga tushdim-qoldim!

Qayrilma kipriklarini pipiratib bemalol uxlashini qarang! Erining uyida yotgandek! Ertaga meni urushga yuborishadimi, peredovoyda nemis o'qidan o'lib ketamanmi, bunga nima? Eri urushdan kelgan kuni uning to'shagidayam shunaqa – oydek bo'lib yotaveradi-da!..." [3]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Demak, bir xil hodisaning personajlar nazdidagi ikki talqini romanni hayotiy voqelikka yaqinlashtiradi. Asar badiiyligini kuchaytiradi.

Biz tahlilga tortgan roman ham polifonik asar bo'lib, roman tuzilishi 7 qism, 47 bobdan iborat, unda 149 ta personaj qatnashadi. Adib har bir personajga o'ziga xos tarzda yondashganki, asarda "birrov"ga ishtirok etgan personajlarning ham o'z o'zni bor, birorta personajni asardan olib tashlasak, qandaydir kemtiklik paydo bo'ladi. Masalan,

"Qora amma" Rashid abzining oldiga kelganida pochtaxona qulf edi. Rashid abzini kutib o'tiradi. Ko'chaning narigi tomonida non do'konida navbat kutib turganlarni kuzatib, xayolga cho'mgan "Qora amma" birdan cho'chib ketadi.

"...Allakim ovozi boricha ayyahannos soldi:

- Ushla! Ushla o'g'rini!

O'sha zahoti xotin kishining dunyoni buzgudek chinqiriq tovushi olamni tutdi:

- Voydod! Nonim! Nonimni obqochdi! ...

Bolani birpasda olomon qilib yuborishdi...

- Hay, insoflaring bormi, o'ldirib qo'yanlar-ku bechorani!

Rangpar xotin bola u yoqda qolib, mening yoqamga yopishdi:

- Boyvachcha bo'lsang uyingga oborib boq, jodugar kampir!...

- Yetimlarning nasibasi edi-ku! – dedi rangpar xotin chirqillab, – endi nima qilaman?

Bolalarimga nima beraman?..." (131-132-bet)

Bu voqea orqali urush tufayli etim qolgan bolalar, beva qolgan ayollar taqdiri, ochlik, ..qo'yingki, asardagi asosiy mavzu-urush oqibatlarini yana bir bor ochib beriladi.

"Ajab inson xotirasi – eshigi yopib qo'yilgan omborga o'xsharkan. Ombor oldidan har kuni o'tasiz. O'tasizu, o'z yumushingiz bilan ovora bo'lib, qayrilib qaramaysiz. Vaqti kelib tasodifiy shamol omborning eshigini ochib yuboradi-yu, beixtiyor ichkariga mo'ralab qaraysiz. Shunda qiziq holat ro'y beradi. Ombor ichida oltindan qimmat narsa ham, ko'zingiz tushishi bilan ta'bingizni xira

qiladigan qaqir-ququrlar ham qalashib yotgan bo'ladi. Alam qiladigan joyi shundaki, siz ulardan xohlaganingizni tanlab olomaysiz. Bunisi kerakli, bunisining keragi yo'q, birini olib, ikkinchisini ulotqirib tashlash qo'lingizdan kelmaydi. Hammasi birvarakayiga jonlanib, atrofingizni qurshab oladi" (13-bet)

Asardagi har bir qahramon voqea-hodisalarga o'z hissiyotlari, o'z kechinmalari, o'z nuqtayi-nazari bilan qaraydi.

Masalan, Muzaffar bolalarcha hissiyot bilan ko'rgan voqealariga sirdan baho beradi, ichki mohiyatiga ahamiyat bermaydi, bolalarcha "men"i uning chuqur mushohada qilishiga xalaqit beradi, yoshi ulg'aygan sari fikrlashi ham o'zgarib boradi.

Yoki Ra'noga berilgan ta'rif borasida Robiyaning fikri bir-biriga qarama-qarshi, Ra'no kelinoyisini yomon ko'rayotgan bo'lsa-da, yuragining bir chekkasida unga achinish hissi yotadi. Shomurodning fikriga ko'ra, Ra'no xiyonatkor, kechirishga loyiq emas ayol, "Qora amma" esa bu voqealarda Ra'noga ham nafrat, ham achinish bilan qaragani holatda bularning hammasiga urush aybdor deb hisoblaydi.

Asar ta'sirchanligini oshirishda yana bir boshqacha talqin-hid ham katta rol o'ynaydi.

Masalan, Shomurodning "mudom tamaki hidi anqib turishi" bilan unda hayotdan alamzada, dardini ichiga yutub yuruvchu odamni ko'rsak, Kimsan va Robiya muhabbatining olma daraxti guli bilan uyg'un kelishi ularning beg'ubor o'y-xayollarini ifodalaydi. "Qatiq hidi" kelib turgan "g'ij-g'ij" nafas oluvchi "Qora amma" umri mehnat bilan o'tgan, mehnatkash, sabrli o'zbek ayoli sifatida aks ettiriladi.

XULOSA

Asarning qahramonlar tilidan hikoya qilinishi asarning kitobxonga ta'sir qilish kuchini oshiradi. Kitobxon mutolaa qilar ekan, qahramon bilan birga yig'laydi, birga kuladi. Shu o'rinda, O'.Hoshimovga kasalxonadagi vrach aytgan gaplarni esga olmay iloji yo'q:

"...Kitob qahramonlarining quvonchi ham, iztirobi ham muallif qalbidan o'tishini Qutbiddin ismli shifokor ukam o'zimga o'zimdanda ko'ra yaxshiroq tushuntirib bergan edi. Kunlardan birida u shunday dedi: "Dunyoning ishlari"ning so'nggi sahifasini, "Ikki eshik orasi"da Munavvaraning nobud bo'lishini, "Tushda kechgan umrlar"da Shahnozaning Rustam qabrini silab yig'layotganini o'qiyotganimizda ko'zimdanda yosh chiqib ketgan. Men-ku, kitobni o'qiyotib shu ahvolga tushdim. Siz uni yozgansiz-ku. Shunday ekan, Siz kasal bo'lmay men bo'laymi?!"

Shaxs va jamiyat orasidagi muvozanat buzilgan, sharoit qanday bo'lishiga qaramay, insoniylik tushunchalarini saqlab qola olgan, taqdirini el-u yurt, Vatan uchun fido qila olgan, farzandidan ayrilib ham boshqalar baxti uchun kurashishga o'zida kuch topa olgan, o'zi istamagan holda urush hukmiga tobe bo'lib qolgan insonlarning taqdirini hikoya qiluvchi ushbu asarni o'qir ekanmiz, bugungi tinch hayotimiz uchun shukr qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Норматов У. Насрдаги шоир ёхуд руҳият манзаралари. Ўткир Ҳошимов замондошлари наздида. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2011. (Poetic or spiritual scenes in prose. O'.Hoshimov among his contemporaries)
2. The Oxford dictionary of literary terms. Oxford University Press, 2015.
3. Hochimov O'. Ikki shik orasi. – Toshkent, 2019. (Between two doors)
4. Boltaboyev H. El sevgan adib. – Toshkent, 2011. (Honorable writer)
5. Hochimov O'. Sakkizinchi mo'juda. – Toshkent, 2009. (The eighth miracle)
6. Rahmanova A. O'. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida badiiy personajlarning ichki hissiyotlarini namoyon etishda metaforaning o'rni. – Журнал иностранных языков и лингвистики 2(3). <https://fill.jspi.uz/index.php/fill/article/view/982> (The role of metaphor in xpressing the inner feelin gs of artistic characters in O'.Hoshimov's novel "Between Two Doors")